

## GAZLAMA QOLDIQLARIDAN FOYDALANIB QUROQ TIKISH TEXNOLOGIYASINI STEAM YONDASHUVI ASOSIDA O'RGATISHNING INNOVATSION MODELINI

Rizoqulova Maftuna Mansur qizi  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Texnologik ta'lim kafedrasini 1-bosqich magistri  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17661200>

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda gazlama qoldiqlaridan foydalanib quroq tikish texnologiyasini STEAM yondashuvi asosida o'rgatishning innovatsion modeli ishlab chiqilgan. Tadqiqotning dolzarbligi tikuvchilik korxonalarini hamda maishiy iste'moldan qolayotgan tekstil chiqindilarini qayta ishlash orqali ekologik muammolarni kamaytirish, ulardan dizayn yo'nalishida samarali foydalanish va ta'lim jarayoniga integratsiya qilish zarurati bilan asoslanadi. Taklif etilayotgan modelda Science (material xususiyatlari), Technology (tikish va qayta ishlash jarayonlari), Engineering (konstruksiya va geometrik yechimlar), Art (rang uyg'unligi va kompozitsiya), Mathematics (o'lchov va proporsiyalar) bo'limlari o'zaro bog'langan holda qo'llaniladi.

**Kalit so'zlar:** STEAM yondashuvi, quroq tikish texnologiyasi, gazlama qoldiqlari, qayta ishlash texnologiyasi, ekologik muammo, barqaror moda, fanlararo integratsiya, innovatsion ta'lim modeli, ekodizayn, loyihaviy ta'lim, raqamli naqshlash, kreativ dizayn ko'nikmalari, xalq amaliy san'ati elementlari, materialshunoslik, kompozitsion yechimlar, texnologik ta'lim, ekologik madaniyat.

Zamonaviy ta'lim jarayonida ekodizayn, qayta ishlash texnologiyalari va innovatsion pedagogik yondashuvlarni uyg'unlashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tikuvchilik korxonalarini, kiyim-kechak ishlab chiqarish va maishiy iste'mol natijasida hosil bo'layotgan gazlama qoldiqlari ekologik muammolar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Ana shunday chiqindilarni qayta ishlashning samarali yo'llaridan biri quroq tikish texnologiyalaridir. Ushbu texnologiyani ta'lim jarayoniga STEAM yondashuvi orqali integratsiya qilish talabalar kreativligini, dizayn tafakkurini hamda ekologik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — gazlama qoldiqlaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash hamda quroq tikishni o'qitishda fanlararo integratsiyani ta'minlovchi innovatsion ta'lim modelini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishdan iborat. Mazkur modelda **Science** (material tarkibi, tolalar fizik-kimyoviy xususiyatlari), **Technology** (tikish texnologiyasi, qayta ishlash usullari), **Engineering** (konstruksiya va kompozitsiya yechimlari), **Art** (rang va forma uyg'unligi, milliy naqshlar), **Mathematics** (geometrik shakllar, proporsiyalar va o'lchovlar) komponentlari integratsiyasi nazarda tutiladi.

Tadqiqot jarayonida loyiha faoliyati, muammoli ta'lim, design thinking, vizual modellashtirish, raqamli naqshlash (CAD) kabi metodlardan foydalaniladi. Talabalar kichik loyihalar ko'rinishida chiqindi matolardan amaliy bezak buyumlari, interyer aksessuarlari va libos detallarini yaratish orqali nafaqat kasbiy ko'nikmalar, balki barqaror moda konsepsiyasiga oid bilimlarni ham egallaydi.

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari mazkur model o'quvchilar dizayn tafakkurini faolligini oshirishi, gazlama qoldiqlaridan foydalanish samaradorligini kuchaytirishi hamda ta'lim jarayonini ekologik yo'naltirilgan qilib qurishga yordam berishini ko'rsatdi. Shunday qilib, STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan quroq tikish texnologiyasini o'qitish modeli nafaqat

ta'lim sifati, balki jamiyatda ekologik mas'uliyat va qayta ishlash madaniyatini shakllantirish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Yakubov, R. Tekstil materialshunosligi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
2. Qodirova, N. Qurama tikish san'ati va texnologiyasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
3. STEAM Education: Theory and Practice. — Washington: STEM Press, 2017.
4. Fullan, M. Pedagogik transformatsiya va innovatsiyalar. — Cambridge: Education Press, 2019.
5. Байрамов, Р. Materiallar konstruksiyasi va geometrik modellashtirish. — Moskva: Knorus, 2015.
6. “Tekstil chiqindilaridan qayta foydalanishning innovatsion yo'llari.” — *Zamonaviy dizayn*, №4, 2022.